



Arabov Nurali Uralovich,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti professori
e-mail: n_arabov@mail.ru

MAHALLALARDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Аннотатсия. *Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish tarmoqlarida investitsiya siyosati samaradorligini oshirish yo'llari, xizmat ko'rsatish sohasida investitsion mablag'larning shakllanishi, davlat-xususiy sherikligi asosida xizmat ko'rsatish sohasi rivojlantirishining investitsion usullari va vositalari, davlat investitsion strategiyasi doirasida xizmat ko'rsatish sohasi xo'jalik subyektlarining tarmoq tarkibi, ularning samaradorligini aniqlash mexanizmlari, ijtimoiy ahamiyatga ega strategik loyihalarni boshqarish va moliyalashtirish bo'yicha xususiy sektorning ishtirokini ta'minlash usullari hamda davlat-xususiy sherikligi mexanizmini joriy etishning ba'zi cheklovlari, davlat risklarini tizimli tartibda aniqlash va tasniflash mezonlari hamda davlat-xususiy sherikligi mexanizmini joriy qilishning samarali yo'llari tadqiq qilingan.*

Аннотация. *В данной статье исследованы пути повышения эффективности инвестиционной политики в сфере услуг, формирования инвестиционных фондов в сфере услуг, инвестиционные методы и инструменты развития сферы услуг на основе государственно-частного партнерства, сетевая структура хозяйствующих субъектов сферы услуг в рамках государственной инвестиционной стратегии, механизмы определения их эффективности, способы обеспечения участия частного сектора в управлении и финансировании социально значимых стратегических проектов, некоторые ограничения внедрения механизма государственно-частного партнерства, критерии системной идентификации и классификации государственных рисков, а также эффективные пути внедрения механизма государственно-частного партнерства.*

Annotation. *This article researches the ways of improvement of the efficiency of investment policy in the service sector, formation of investment funds in the service sector, investment methods and tools for the development of the service sector on the basis of public-private partnerships, the network structure of business entities in the service sector within the framework of the state investment strategy, mechanisms for determining their effectiveness, ways to ensure the participation of the private sector in the management and financing of socially significant strategic projects, some restrictions on the implementation of the public-private partnership mechanism, criteria for systemic identification and classification of public risks, as well as effective ways to implement the public-private partnership mechanism.*

Tayanch soʻzlar: *xizmat koʻrsatish sohasi, xususiy sektor, davlat-xususiy sherikligi, loyiha, strategiya, mexanizm, davlat risklari, cheklolar, mezonlar.*

Ключевые слова: *сфера услуг, частный сектор, государственно-частное партнерство, проект, стратегия, механизм, государственные риски, ограничения, критерии.*

Keywords: *service sector, private sector, public-private partnership, project, strategy, mechanism, state risks, limitations, criteria.*

Kirish. Iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida xizmat koʻrsatish sohasining muhim vazifalaridan biri kelgusida iqtisodiy oʻsishni taʼminlash muammolarini hal qilish uchun moliyaviy resurslardan samarali foydalanish hisoblanadi. Bu esa mamlakatimiz iqtisodiyotida investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish orqali xizmat koʻrsatish sohasida faoliyat yurituvchi xoʻjalik subyektlarining barqaror rivojlanishini taʼminlash hamda sohada yaratilayotgan yalpi mahsulot hajmini oshirish strategik maqsadlardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni taʼminlash hamda resurslardan samarali foydalanishda investitsion faoliyatni amalga oshirish muhim ahamiyatga egadir.

Asosiy qism. Hozirgi vaqtda mavjud moliyaviy muammolarni hal qilish jarayonida ishlab chiqarish va mahsulot realizatsiyasi hajmlari, tovar oqimlarining chegaralari mustaqil ravishda belgilanmoqda. Kelgusida bu yoʻnalishdagi rivojlanishning salbiy tendensiyalarini pasaytirish uchun maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqish asosli hisoblanadi. Shu bilan birga, muvofiqlashtiruvchi tashkiliy tuzilma tashkil etilishi kerak va u mamlakatimizda yagona huquqiy, axborot-analitik, tashkiliy, investitsion muhitning shakllanishiga imkon berishi hamda mamlakatning har bir hudud va iqtisodiyot tarmoqlarida dolzarb yoʻnalishlarni aniqlash imkonini berishi zarur.

Qoraqalpogʻiston Respublikasida xizmat koʻrsatish sohasining rivojlanishi investitsiyalar bilan taʼminlash va qoʻllab-quvvatlash

***Asosiy choralar
investitsion
mexanizmlarning
institutsional
asoslarini
rivojlantirish,
byudjet resurslari
hamda jalb
qilingan moliyaviy
mablag'lardan
yuqori darajada
samarali
foydalanish
bo'yicha
zamonaviy
moliyalashtirish
texnologiyalarini
joriy etishga
ko'maklashish
kerak.***

mexanizmlarini shakllantirish hamda ushbu jarayonda davlat-xususiy sherikligi (DXSh) mexanizmini joriy etishni nazarda tutadi. Sohada investitsion siyosatni amalga oshirish ishlab chiqarish sektoridagi korxonalarga ajratilgan moliyaviy resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan bo'lishi kerak. Shuningdek, asosiy choralar investitsion mexanizmlarning institutsional asoslarini rivojlantirish, byudjet resurslari hamda jalb qilingan moliyaviy mablag'lardan yuqori darajada samarali foydalanish bo'yicha zamonaviy moliyalashtirish texnologiyalarini joriy etishga ko'maklashish kerak.

Investitsion mablag'larning shakllanishi, davlat-xususiy sherikligining konseptual asoslari, pul-kredit siyosati, xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish orqali uy xo'jaliklari daromadlarining eng tez o'sishiga erishish yo'nalishlari, raqobat muhitining shakllanishi uchun davlatning iqtisodiy funksiyalaridan foydalanishning shart-sharoitlari bilan bog'liq muammolar J.M.Keyns¹, Y.A.Shumpeter², K.R.Makkonnell, St.L.Bryu³, Dj.K.Gelbreyt⁴, S.P.Kukura⁵, J.Pyer, J.G.Peters⁶ asarlarida yoritib berilgan.

Ijtimoiy ahamiyatga ega strategik loyihalarni boshqarish hamda moliyalashtirish bo'yicha xususiy sektorning ishtirokini ta'minlash, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimining shakllanishi, "davlat-xususiy sherikligi" kategoriyasining iqtisodiy mohiyati va mazmuni, maqsad va vazifalari, tarkibi va modellari, davlat va xususiy tadbirkorlik subyektlari o'rtasida iqtisodiy faoliyatning asosiy yo'nalishlari, davlat va tadbirkorlik o'rtasida hamkorlik shakllarini amalga oshirish uchun moliyaviy mablag'larni jalb qilish manbalari, davlat va jamoatchilik mulki obyektlari, shuningdek, keng doiradagi iqtisodiy faoliyat turlarida ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish yo'llari, uning afzalliklari, xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sheriklikning asosiy shakllari, davlat va xususiy sektorning

¹ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. с англ. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – Москва: МИЭМП, 2010.

² Шумпетер Й.А. История экономического анализа. В 3-х томах. – Санкт-Петербург: Экономическая школа, 2004.

³ Макконелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс. Принципы, проблемы, политика. – Москва: Республика, 1992. Т. II. – С. 398.

⁴ Гелбрейт Дж.К. Экономические теории и цели общества = Economics and the Public Purpose (1973) / Под общ. ред. и с предисл. Н.Н.Иноземцева, А. Г.Милейковского. – Москва: Прогресс, 1976. – 408 с.

⁵ Кукура С.П. Теория корпоративного управления / С.П.Кукура. – Москва: Экономика, 2004. – С. 105.

⁶ Peters J.G, Pierre J. Governance Politics and the State (Political Analysis). N.Y., 2000.

o‘zaro munosabati tizimida davlat-xususiy sheriklikning o‘rni, tamoyillari va omillariga oid tadqiqotlar O.A.Romanova⁷, Y.D.Frolova⁸, V.A.Kabashkin⁹, V.G.Varnavskiy, A.V.Klimenko, V.A.Korolyov¹⁰, V.V.Ivanova, S.Klesova, P.Lindxolm, O.P.Luksha¹¹, P.D.Xodjayev¹², U.I.Djumaniyazov¹³, L.Sharinger¹⁴, Y.M.Stirin¹⁵larning asarlarida o‘rganilgan.

Tadqiqot jarayonida iqtisodiyotning transformatsiyalashishi sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasida davlat-xususiy sherikchiligi rivojlanishiga metodologik yondashuvning ilmiy asoslari, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini realizatsiya qilish, xizmat ko‘rsatish sohasida davlat-xususiy sheriklikning asosiy yo‘nalishlari, ushbu mexanizmni joriy etish bo‘yicha cheklovlar, davlat risklarini tizimli tartibda aniqlash hamda tasniflash mezonlarining shakllanishi bo‘yicha iqtisodiy tizimlar va nisbatlarni o‘rganishga dialektik, tizimli va ilmiy yondashuv, qiyosiy va solishtirma tahlil hamda guruhlash usullaridan foydalanildi.

***Tadqiqot
jarayonida
iqtisodiyotning
transformat-
siyalashishi
sharoitida xizmat
ko‘rsatish sohasida
davlat-xususiy
sharikchiligi
rivojlanishiga
metodologik
yondashuvning
guruhlash
usullaridan
foydalanildi.***

⁷ Романова О.А. Теория и практика развития частно-государственного партнерства/ О.А.Романова // Вестник Уральского государственного технического университета. 2007. – № 3. – С. 41.

⁸ Фролова Е.Д. Основные тенденции развития взаимоотношений государства и бизнеса/ Е.Д. Фролова // Вестник УГТУ-УПИ. 2003. – № 7. – С. 31.

⁹ Кабашкин В.А. Формирование и развитие партнерских отношений государства и предпринимательских структур в Российской Федерации (управленческий аспект): автореф. дис. ... док. экон. наук: 08.00.05/ В.А.Кабашкин. – Москва, 2007. – С. 23.

¹⁰ Варнавский В.Г., Клименко А.В., Королев В.А. Государственно-частное партнерство: теория и практика: учебное пособие. – Москва: ГУ-ВШЭ, 2010.

¹¹ Национальные инновационные системы в России и ЕС / под ред. Иванова В.В., Клесовой С, Линдхольма П., Лукши О.П. – Москва: ЦИПРАН РАН, 2006. – С. 200.

¹² Ходжаев П.Д. Зарубежный опыт формирования и развития партнерских отношений между государством и региональными предпринимательскими структурами / П.Д. Ходжаев // Вестник Российско-таджикского (славянского) университета. – Душанбе: РТСУ, 2014. – № 3 (46). – С. 102.

¹³ Джуманиязов У.И. “Давлат-хусусий шерикчилиги асосида корпоратив бошқарувни ривожлантиришнинг айрим назарий-услубий масалалари” // «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнали. 2017. – № 3, май-июнь. – Б. 9.

¹⁴ Шарингер Л. Новая модель инвестиционного партнерства государства и частного сектора / Л.Шарингер // Мир перемен. – 2004. . Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. сангл. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – Москва: МИЭМП, 2010. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. с англ. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – Москва: МИЭМП, 2010. – № 2. – С. 22.

¹⁵ Стырин Е.М. Международный опыт использования ГЧП для реализации проектов электронного правительства. – Москва: «Издательский дом ВШЭ», 2010.

***Turli hududiy
tuzilmalar,
tarmoq va faoliyat
sohalarida qabul
qilinayotgan chora-
tadbirlarni uch
asosiy yoʻnalishga
ajratish mumkin:
moliyaviy
oqimlarni nazorat
qilish; narxlarni
boshqarish
(tartibga solish)
orqali bozorni
nazorat qilib
borish; turli
dasturlarni
ishlab chiqish va
jamgʻarmalarni
tashkil etish.***

Qoraqalpogʻiston Respublikasida iqtisodiyotning transformatsiyalashishi bilan ijtimoiy loyihalarni investitsiyalash jarayonida davlatning roli muayyan darajada kamayib bormoqda va asosiy obyektlarni boshqarish funksiyalari asta-sekinlik bilan xususiy sektorga oʻtkazila boshladi. Shuningdek, davlatning xususiy tadbirkorlik subyektlari bilan samarali hamkorligini amalga oshirish hamda raqobatni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash usullari va vositalarini optimal darajada joriy etish alohida ahamiyatga egadir.

Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi “Davlat-xususiy sheriklik toʻgʻrisida”gi OʻRQ-537-son Qonuni qabul qilinishi mamlakatimizda davlat va xususiy tadbirkorlik subyektlari oʻrtasida iqtisodiy faoliyatning turli xil yoʻnalishlarida munosabatlarni rivojlantirish hamda tartibga solishni nazarda tutadi. Mazkur Qonunning asosiy maqsadi davlat-xususiy sheriklik, shu jumladan, konsessiyalar sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir¹⁶.

Turli hududiy tuzilmalar, tarmoq va faoliyat sohalarida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarni uch asosiy yoʻnalishga ajratish mumkin: moliyaviy oqimlarni nazorat qilish; narxlarni boshqarish (tartibga solish) orqali bozorni nazorat qilib borish; turli dasturlarni ishlab chiqish va jamgʻarmalarni tashkil etish. Ushbu shart-sharoitlarda davlat miqyosida olib borilayotgan investitsion siyosatni takomillashtirish hududiy rivojlantirish va alohida xizmat koʻrsatish tarmoqlari faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi yondashuvlarda farqlarning mavjudligi sababli murakkablashmoqda¹⁷.

Xizmat koʻrsatish tarmoqlarida investitsiya siyosati samaradorligini oshirish quyidagilardan iborat:

- xizmat koʻrsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning meʼyoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish;
- sohada investitsion jozibadorlikni oshirish orqali aholi bandligi darajasini oshirish va hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirish;
- hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini tuzishda xizmat koʻrsatishning zamonaviy tarmoqlariga investitsiyalarni jalb qilishning moliyaviy manbalarini shakllantirish;
- xizmat koʻrsatish sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ularni sugʻurtalash tizimini rivojlantirish;

¹⁶ Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 10 майдаги “Давлат-хусусий шериклик тўғрисида”ги ЎРҚ-537-сон Қонуни // <https://lex.uz/docs/4329270>

¹⁷ Эргашев И.И. Хизмат кўрсатиш соҳасида инновацион-инвестицион жараёнларни ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш. Икт. фан. бўйича фалс. докт. дисс. (PhD) – Самарқанд: СамИСИ, 2018. – Б. 30-31.

– xorijiy investitsiyalarni xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari bo‘yicha taqsimlash tizimini takomillashtirish.

Shunga ko‘ra, hozirgi vaqtda Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatish soha va tarmoqlarida investitsion faoliyatni moliyaviy jihatdan ta‘minlash shakllari va usullarini takomillashtirish hamda uni davlat tomonidan tartibga solishning o‘ziga xos qonuniyatlarini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini tartibga solish va ularni moliyalashtirishning yangicha tizimini shakllantirish sohada faoliyat yurituvchi xo‘jalik subyektlari rivojlanishning strategik maqsad va vazifalariga erishish imkoniyatini yaratadi.

Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari investitsion resurslardan foydalanishning asosiy jihatlari bo‘lib, portfel investitsiyalarga ularning korxonalarining layoqatliligini belgilaydi.

Bizning fikrimizcha, ham soha korxonalari uchun, ham hudud, tumanlarning butun iqtisodiyoti uchun mavjud investitsion loyihalar ko‘lami bo‘yicha shart-sharoitlarni aniqlash zarur. Ushbu shart-sharoitlar uning rivojlanishining investitsion strategiyalarini ishlab chiqish va DXSh asosida xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishining investitsion usullari hamda vositalari bo‘yicha muammolarni tadqiq etishda hisobga olinadi.

Vaholanki, investitsion strategiya funksional tavsifga egadir. Bunda xizmat ko‘rsatish korxonalarining investitsion faoliyatning asosiy yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish kerak. Shuningdek, ularning samaradorligi hamda ushbu faoliyatning turli yo‘nalishlari bo‘yicha ijobiy yoki salbiy sinergetik samaraga erishishni baholash zarur.


Investitsion mablag‘lar manbayi sifatida barcha darajalardagi byudjet resurslari, korxonalarning o‘z mablag‘lari, investorlar jamoasining aktivlari (investitsiya jamg‘armalari, sug‘urta kompaniyalari, nodavlat pensiya jamg‘armalari), xorijiy investitsiyalar, kreditlar, DXSh mablag‘lari bo‘lishi mumkin (1-rasm).

Shu bilan birga, investitsiyalashning asosiy usullari sifatida byudjetdan tashqari moliyalashtirish, davlat moliyaviy mablag‘lari, o‘zini o‘zi moliyalashtirish, investitsion soliq kreditlari, mol-mulk ijarasi, bank kreditlari, lizing kabilar bo‘lishi mumkin.

Investitsion faoliyat investitsion jarayonlarni ishlab chiqish hamda realizatsiya qilish nazariyasi va amaliyotini ifodalovchi bilimlar sohasining rivojlanishini o‘zida namoyon etuvchi muvofiq loyihalar bilan boshlanadi.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida investitsion faoliyatni strategik boshqarish jarayonida investitsion portfelning shakllanishi ushbu faoliyatni

taktik boshqarish jarayonida o'zining kelgusidagi konkretlashishini nazarda tutadi. Investitsion strategiyalardan farqli investitsion portfelning shakllanishi xo'jalik subyektlarining strategik qarorlari va joriy moliyaviy imkoniyatlari doirasida amalga oshiriladigan o'rta muddatli boshqaruv jarayonlari bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, investitsion faoliyatni taktik boshqarish jarayoni alohida investitsion dasturlar va loyihalarni realizatsiya qilishni operativ boshqarishda o'zining batafsil yakuniy bosqichiga ega bo'ladi.



1-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasida investitsion mablag'larning shakllanishi'¹⁸

Davlat investitsion strategiyasi doirasida xizmat ko'rsatish sohasi xo'jalik subyektlarining tarmoq tarkibi hamda ularning samaradorligini baholash monitoringi nazarda tutiladi. Bunday strategiyani shakllantirishning asosi bo'lib hududning umumiy rivojlanish strategiyasi hisoblanadi. Bu subyektlarning rivojlanishiga ekzogen, endogen va institutsional omillar ta'sir qiladi.

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish strategiyasini yaratish hamda joriy etish davlat hokimiyatining mahalliy va o'zini o'zi boshqarish organlarini ichki va tashqi omillarga ta'sir ko'rsatishga majbur qiladi. Bu

¹⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

holat soha korxonalari faoliyatini boshqarish siyosati modellarini ishlab chiqishga ko'maklashadi.

Mamlakatning rivojlanish strategiyasi bo'yicha siyosatning ikki asosiy maqsadi bo'lib, ular yaxlit iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish va subyektlar o'rtasidagi nomutanosib rivojlanishini bartaraf etish hisoblanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish ularning tarmoq xususiyatlariga mos iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Investitsion vositalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari turli xil axborotlar manbalarining mavjudligi hisoblanadi. Shunday qilib, xizmat ko'rsatish korxonalarining investitsion jozibadorligini boshqarishning maqsad va vazifalarini aniqlashtirish mumkin. Shuning uchun investitsion jozibadorlikni boshqarishning eng samarali uslublaridan biri bu axborotlarni taqdim qilishning maqbul mazmuni va shaklining strategik ahamiyatga ega tanlovi hisoblanadi.

Iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida ijtimoiy ahamiyatga ega strategik loyihalarni boshqarish va moliyalashtirish bo'yicha xususiy sektorning ishtirokini ta'minlash alohida o'ringa egadir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, DXSh loyihalarini boshqarish mexanizmi davlat sektori faoliyati samaradorligining oshishi, jiddiy sifat o'zgarishlarga shart-sharoit yaratadi.

Keyingi paytlarda DXSh ijtimoiy infratuzilmaga tez o'suvchi talabni qondirishning muhim vositasiga aylandi. Shunday ekan, davlat ixtiyorida mavjud bo'lgan an'anaviy moliyalashtirish manbalari yetarli hisoblanmaydi. Lekin hozirgi vaqtda DXSh mexanizmini joriy etish uchun ba'zi cheklovlar mavjuddir:

- xususiy sektor subyektlari har doim ham yuqori darajadagi risk va murakkablik tufayli loyihani o'z zimmasiga olmaydi;
- infratuzilma obyektlarining egalik huquqini xususiy korxonalarga o'tkazish har doim ham mazkur obyektidan foydalanish samaradorligining oshishiga olib kelmaydi, bu holat boshqarish jarayonidagi o'zgarishlar hamda bozordagi va tarmoqdagi jiddiy islohotlarning amalga oshirilishi bilan bog'liq;
- DXShning muvaffaqiyati samarali boshqaruv samaradorligi va ko'plab omillar ta'siri ostidagi jarayonlarning murakkabligiga bevosita bog'liq.

Davlat DXShda tomonlarning biri sifatida namoyon bo'luvchi va riskni o'z zimmasiga olgan holda sug'urtalashdan moddiy manfaatdor bo'lgan holda ushbu tizimdan to'liq foydalanishi kerak. Davlat DXShda ishtirok eta turib, mulkiy (davlat mulkining to'liq yoki qisman yo'qolishi),

Investitsion vositalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari turli xil axborotlar manbalarining mavjudligi hisoblanadi. Shunday qilib, xizmat ko'rsatish korxonalarining investitsion jozibadorligini boshqarishning maqsad va vazifalarini aniqlashtirish mumkin.

Bugungi kunda dunyoda DXShga qiziqishning asosiy sabablaridan biri shundan iboratki, bu hamkorlik har doim loyihalarning shakllanishi va amalga oshirilishida davlat sektori xizmatlariga kapital sarflarni taqsimlash imkonini beradi. Ular iqtisodiy resurslar chegaralangan sharoitda davlat byudjetidan kechiktirmasdan to'lovlarni amalga oshirishni zarurat etadi.

siyosiy (mamlakatda siyosiy parokandalik muhiti va milliy investorlarning xorijdagi siyosiy tartibsizliklardan himoyalalmaganligi), ijtimoiy (butun jamiyat va fuqarolarni himoyalash bo'yicha davlatning ijtimoiy funksiyalari bajarilmasligi xavfi), moliyaviy (byudjet mablag'larini maqsadsiz ishlatish, turli xil xavf-xatarlar sababli ko'zda tutilmagan qo'shimcha xarajatlar, davlat maqsadli dasturlari va investitsiyalarni samarasiz boshqarish kabilar), jamoat (aholining noroziligi, xalqaro tashkilotlar tomonidan salbiy munosabatlarning bildirilishi, davlatning reytingini pasaytirish, mamlakat obro'yiga zarar keltirish) tavsifidagi xatarlar bo'yicha qarorlar qabul qilishda mas'uliyatni oshiradi.

Davlat risklarini tizimli tartibda aniqlash va tasniflash maqsadida ularning quyidagi mezonlarini ishlab chiqdik:

1. Risklarni sug'urtalash mezoniga ko'ra, sug'urtalangan va sug'urtalanmagan risklarga bo'linadi. Birinchi turga qiymat ko'rinishida baholangan davlat risklari tegishli. Sug'urtalangan risklar bir qancha variantlarda aniqlanishi mumkin: nazoratdan tashqarida bo'lgan ma'lumotlarning kelib tushish ehtimolligi; inson sog'lig'i va hayotiga zarar yetkazish ehtimolligidan sug'urtalash; sug'urtalovchi mas'uliyatining ko'rinishi; sug'urtalash amalga oshirilgan taqdirda kutilayotgan hodisa.

2. Davlat risklarini tasniflashning ikkinchi mezon davlatning funksiyalari bilan bog'liq bo'lib, ularni quyidagi shaklda guruhlash mumkin: siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy, ma'muriy boshqaruv.

3. Uchinchi guruh mezonlariga risklarni ommalashganlik ko'lami bo'yicha mahalliy, hududiy, milliy, xalqaro va global turlarga ajratish mumkin.

4. To'rtinchi guruh mezonlarini ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari bo'yicha tasniflash mumkin. Ularga boshqariladigan va muqarrar (tabiiy falokatlar, iqlimning o'zgarishi, iqtisodiy va siyosiy inqirozlar, ijtimoiy ziddiyatlar, pandemiya va h.k.) risklar kiradi.

5. Beshinchi mezon sof (boshqa tuzilmalar, shaxslar va tashkilotlar bilan taqsimlanmaydigan) va taqsimlanishi mumkin bo'lgan (riskni uzatish mumkin) risklarga bo'linadi.

Amaliyotda DXSh mexanizmini joriy qilishning samarali yo'llari va mavjud cheklovlariga e'tiborimizni qaratsak:

1. Bugungi kunda dunyoda DXShga qiziqishning asosiy sabablaridan biri shundan iboratki, bu hamkorlik har doim loyihalarning shakllanishi va amalga oshirilishida davlat sektori xizmatlariga kapital sarflarni taqsimlash imkonini beradi. Ular iqtisodiy resurslar chegaralangan sharoitda davlat byudjetidan kechiktirmasdan to'lovlarni amalga oshirishni zarurat etadi. Bu xarajatlar yo iste'molchilar (DXShning

konsession modeli) tomonidan qoplanadi yoki byudjet mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladi, lekin DXSh shartnomasining barcha muddati uchun ajratiladi (xususiy moliyalashtirish tashabbusning Britancha modeli (PFI)) yoxud to‘lov davlat korxonalari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovlar hisobiga amalga oshiriladi.

Barcha bosqichlarda xarajatlar davlat ta‘minotining an‘anaviy tizimida davlat tomonidan qoplanadi, bu esa dastlabki xarid qiymatidan oshib ketish xavfini ham davlat o‘z zimmasiga olishini ifodalaydi.

DXSh mexanizmidan foydalanishda davlat to‘lovlarni birdaniga emas, balki ancha vaqtdan so‘ng, faqat qurilish bosqichi yakunida amalga oshiradi. Xususiy sektor korxonalari esa o‘z kapitalining kichik ulushi va qarz mablag‘laridan ko‘proq foydalanib, qurilishni moliyalashtiradi. Ularning o‘z kapitali rentabelligi ularning ish sifatiga bog‘liqdir.

Shuningdek, DXSh ko‘pincha davlat tomonidan amalga oshirish imkoniga ega bo‘lmagan qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalarga zaruratdan ozod qilish imkonini beradi, bu esa aksariyat hollarda byudjetga soliq va soliqsiz to‘lovlarning yetarli emasligi bilan bog‘liqdir. Bunday holat davlat loyihalarini moliyalashtirishga to‘sqinlik qiladi.

Agarda DXSh loyihalariga dastlabki kapital qo‘yilmalar davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshirilsa, u holda boshqa vaziyatlarda imkonsiz bo‘lgan infratuzilmaviy investitsiyalarni amalga oshirish imkoniyati saqlanib qoladi. Real holatda qat‘iy byudjet cheklovlarini hisobga olgan holda u yoki bu infratuzilmaviy loyihani tayyorlashda moliyalashtirish chizmasini tanlash DXSh va sof jamoat xizmatlarining davlat ta‘minoti o‘rtasida emas, balki DXSh va bunday moliyalashtirishning yetishmasligi natijasida loyihaning o‘zi orqali amalga oshiriladi. Ya‘ni davlat o‘zi mustaqil moliyalashtira olmaydigan bahosi yuqori bo‘lgan murakkab infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish to‘g‘risida masala bo‘lsa, u holda DXSh mexanizmiga muqobillar mavjud bo‘lmaydi.

2. Bu vaqtda ta‘kidlash kerakki, DXSh loyihalariga kapitalning qiymati, odatda, loyiha faqat davlat tomonidan taqdim etilgan va davlat mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish amalga oshirilganga ko‘ra yuqori bo‘ladi. Xorijiy davlatlarning statistik ma‘lumotlariga ko‘ra, DXShda kapital qiymati davlat tomonidan moliyalashtirishga qaraganda 2-3% yuqori bo‘ladi. Bu shu holat bilan izohlanadiki, davlat tomonidan moliyalashtirishdagi risklar xususiy sektordagi kreditorlar riskiga nisbatan kamroq bo‘ladi. Hozirgi kunda DXSh doirasida hukumatlar loyihaning riskini ham qayta ko‘rib chiqmoqdalar. DXSh davlat sektorini loyihalar riskini aniqlash va ularni an‘anaviy davlat xizmatlarining amaliyotiga nisbatan ishonchli tarzda sug‘urtalashga rag‘batlantiradi.

DXSh mexanizmidan foydalanishda davlat to‘lovlarni birdaniga emas, balki ancha vaqtdan so‘ng, faqat qurilish bosqichi yakunida amalga oshiradi. Xususiy sektor korxonalari esa o‘z kapitalining kichik ulushi va qarz mablag‘laridan ko‘proq foydalanib, qurilishni moliyalashtiradi. Ularning o‘z kapitali rentabelligi ularning ish sifatiga bog‘liqdir.

***Iqtisodiyotning
trans-
formatsiyalashuvi
sharoitida
davlatning
maqsadlarini
realizatsiya qilish
uchun xususiy
sektorni jalb
qilishning ijobiy
tomonlaridan
yana biri sifatida
xususiy firmalar
(kompaniyalar)
yirik, murakkab
loyihalarni
boshqarish
sohasida katta
tajribaga ega
bo'lishi barobarida
berilgan byudjet
mablag'lari
doirasida va
aniq muddatda
bunday loyihalarni
yakunlash
qobiliyati yuqoriroq
bo'ladi.***

3. Bunga bog'liq holda DXSh bo'yicha tomonlar ahamiyatli ravishda investitsiyalash jarayonini tezlashtiradilar, keyin, ko'pincha, oldin bir nechta alohida qismlarga bo'linishi kerak bo'lgan loyihalar yaxlit bir butun holda bajarilishi mumkin.

4. DXSh loyihalari loyihaaning umumiy qiymatini aniqlashga yondashuv bilan tavsiflanadi. Bu nafaqat asosiy vositalarni sotib olish bilan bog'liq xarajatlarni, balki loyihaaning butun muddati mobaynida ushbu asosiy vositalarni saqlashga yo'naltirilgan xarajatlarni ham hisobga oladi. Shunday ekan, investorlar obyektни qurish, operatsion boshqarish va xizmatlar ko'rsatish uchun mas'uliyatni o'z zimmlariga oladilar. Ular o'zlari uchun eng yaxshi tarzda DXSh loyihasini ishlab chiqishdan manfaatdor. Bunda xususiy investorlar dastlabki kapital xarajatlarni oshirishga tayyor, agarda kelajakda bu DXSh shartnomasini amal qilish muddatida ekspluatatsion xarajatlarni pasaytirsam, ta'kidlash kerakki, odatdagi davlat loyihasida minimal miqdordagi boshlang'ich kapital xarajatlari mavjud bo'ladi.

5. Iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida davlatning maqsadlarini realizatsiya qilish uchun xususiy sektorni jalb qilishning ijobiy tomonlaridan yana biri sifatida xususiy firmalar (kompaniyalar) yirik, murakkab loyihalarni boshqarish sohasida katta tajribaga ega bo'lishi barobarida berilgan byudjet mablag'lari doirasida va aniq muddatda bunday loyihalarni yakunlash qobiliyati yuqoriroq bo'ladi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi bo'yicha holatga nazar tashlasak, xususiy sektorga nisbatan investitsion mablag'larni ishlatish samaradorligi xususiy sektor subyektlariga nisbatan pastroq bo'ldi.

6. DXShda sodir bo'ladigan hamda shartnomalarni tanlov asosida tuzish davlat va xususiy sektor tajribalari bo'yicha imkoniyatlar kombinatsiyasi davlat-xususiy sherikligi doirasida infratuzilma loyihalarini shakllantirish va boshqarishga innovatsion yondashuvlarning yuqori salohiyatini aniqlaydi.

7. DXSh hududlarning innovatsion rivojlanishiga faol ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bizning fikrimizcha, DXSh Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarini riojlantirish siyosatida zaruriy shart-sharoitlar sifatida qaraladi. Hududlarda DXSh loyihalari investitsion jozibadorlikni oshirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish masalalarini hal qilish uchun kapitalni qo'shimcha jalb qilish imkoniyatini namoyon etadi.

8. Ta'kidlash kerakki, dunyo amaliyotida DXSh dasturlari ko'plab yo'nalishlar, xususan, xizmat ko'rsatish sohasida davlat sektorini keng ko'lamda isloh qilishning katalizatori bo'lib xizmat qiladi. DXSh yaxlit holda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga qodirdir. DXSh

loyihalarning daromadlari va xarajatlarini hisoblashda hamda barcha hisobotlarda shaffoflikni ta'minlaydi. Xususan, DXSh loyihalarida operatsion sarflar va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini o'z ichiga oluvchi loyihaning barcha xizmat ko'rsatish muddat mobaynida kompaniyaning zimmasida bo'lgan xarajatlarni to'liq ifodalaydi. Bu davlatni aholiga qanday xizmat turlarini ko'rsatishi va ularni qanday narxlarda amalga oshirishi kerakligini diqqat bilan kuzatishga majbur qiladi.

DXSh davlat sektorida xizmatlarni ko'rsatish va rejalashtirish jarayonini takomillashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, davlat DXSh bitimini tuzish vaqtida hamkorlikda ishtirok eta turib, nafaqat dastlabki kapital xarajatlar summasini nazorat qilishi, balki umumiy xarajatlar tarkibida operatsion va texnik xarajatlarni aniqlashi, xizmatlar ko'rsatishning uzoq muddatli rejasi haqida qayg'urishi lozim. Bu davlat xizmatchilarini strategik rejalashtirish bilan shug'ullanishlarini rag'batlantiradi. Davlat xizmatchilarining biznes hamkorlar bilan samarali munosabat o'rnatishlari jarayonida davlat xizmatchilarining egallagan ko'nikmalari davlat sektoridagi boshqa sohalarga o'tkazilishi va undan kengroq mazmunda foydalanilishi mumkin.

9. DXSh loyihalarining keng tarqalishiga to'siq bo'luvchi omillar ushbu jarayonning murakkabligi bilan bog'liqdir. Loyiha qancha murakkab va qiyin bajariladigan bo'lsa, huquqiy va moliyaviy masalalar bo'yicha maslahatchilarni jalb qilish xarajatlari shunchalik katta bo'ladi. Shuningdek, operatsion bo'lmagan xarajatlar katta bo'lib, loyihaning rentabelligi pasayadi. Ba'zida kichik loyihalar ham rentabelli bo'lmaydigan bo'lishi mumkin. Ko'pincha operatsion bo'lmagan xarajatlar loyiha ko'lamiga bog'liq bo'lmaydi hamda yirik loyihalar singari mutlaq ularga yaqin bo'ladi.

Xulosa. 1. Davlat sektori uchun favqulodda murakkab vazifalar uzoq muddatli loyihalardan foydalanish masalalarining barcha yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Masalan, muayyan hududda aholi sonining dinamik o'zgarishi DXSh mexanizmi asosida uzoq muddat mobaynida quriladigan ijtimoiy xizmat ko'rsatish obyektlarini loyihaning yakuni bo'yicha ortiqchaligi yoki yetishmasligiga olib kelishi mumkin. Amaldagi loyihaga o'zgartirishlarning kiritilishi yoki loyihaning yopilishi o'zi bilan birga katta xarajatlarga olib keladi. Xulosa qilish kerakki, loyihaning o'zgarish imkoniyati va narx-sifat nisbati bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Garchi bu nisbatni moliyaviy baholash murakkab bo'lsa ham, loyihaning umumiy qiymatini aniqlashda uni hisobga olish lozim. Bundan kelib chiqadiki, uzoq muddatga rejalashtirilayotgan loyihalar aniq bo'lishi

Davlat xizmatchilarining biznes hamkorlar bilan samarali munosabat o'rnatishlari jarayonida davlat xizmatchilarining egallagan ko'nikmalari davlat sektoridagi boshqa sohalarga o'tkazilishi va undan kengroq mazmunda foydalanilishi mumkin.

*Iqtisodiy beqarorlik
holatlarida aynan
DXSh ham
makrodarajada,
ham alohida
subyektlar
darajasida oldin
boshlangan muhim
ijtimoiy loyihalarni
davlat tomonidan
davom ettirish
va yakunlash
imkoniyatini
yuzaga keltiradi.*

DXSh uchun xosdir. Aksincha, uzoq muddatga mo'ljallangan loyihalarni aniq hisoblash imkoni bo'lmasa yoki texnologiyalari tez o'zgaradigan loyihalarni DXSh doirasida realizatsiya qilish ancha murakkabdir.

2. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, xususiy biznesning ishtirokida davlat funksiyalarini realizatsiya qilishda DXSh loyihalarining hamkorlik asosi quyidagilardan iborat:

– DXSh mexanizmi asosida ko'p hollarda xususiy va jamoat manfaatlariga xizmat ko'rsatish o'tasida qarama-qarshiliklar hal qilinadi, davlat va hokimiyatning o'zaro munosabatida yuqori madaniyat shakllanadi;

– DXShning yuqori ijtimoiy ahamiyati shundan iboratki, DXSh dasturlarini to'liq realizatsiya qilishi natijasida iste'molchi eng ko'p foydani oladi;

– iqtisodiy beqarorlik holatlarida aynan DXSh ham makrodarajada, ham alohida subyektlar darajasida oldin boshlangan muhim ijtimoiy loyihalarni davlat tomonidan davom ettirish va yakunlash imkoniyatini yuzaga keltiradi. Ko'pincha davlat mustaqil moliyalashtirish mumkin bo'lmagan iqtisodiy beqarorlik sharoitida infratuzilmaviy loyihalarning murakkab yo'lini amalga oshirish haqida gap ketganda, bu holatda DXSh mexanizmining muqobili mavjud bo'lmaydi;

– xususiy sektor davlatni byudjetdan to'g'ridan to'g'ri qilinadigan to'lovlardan ozod qilgan holda, moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi. Bu holat iqtisodiy inqirozlar davrida muhim ahamiyatga ega bo'ladi, murakkab, yirik loyihalarni boshqarishda o'zining kasbiy mahorati va bilimlarini namoyon etadi, samarali boshqaruv texnologiyalari DXSh loyihasi doirasida qabul qilinayotgan qarorlarda operativlik va egiluvchanligining oshishiga ahamiyatli darajada ta'sir ko'rsatadi, biznes jarayonlarini optimallashtiradi, innovatsion texnologiyalar joriy etiladi, davlat prognozi uchun eng murakkab risklarni o'z zimmasiga oladi va hokazo.

Boshqa tomondan, xususiy tadbirkorlikka davlat aktivlaridan foydalanish, ularni uzoq muddat egalik qilish va boshqarish huquqi beriladi. Bu xususiy sektor subyektlariga uzoq istiqbolda barqaror foyda olish imkonini beradi, innovatsiyalarni joriy etish yoki mehnat unumdorligini oshirish orqali biznesning qiymati va foyda hajmini oshirish imkonini beradi. Xususiy korxonalar esa davlat tuzilmalari bilan ishlab, katta tajriba orttiradilar va bozorda xususiy korxona to'g'risida ijobiy obro'ga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Варнавский В.Г., Клименко А.В., Королев В.А. Государственно-частное партнерство: теория и практика: учебное пособие. – Москва: ГУ-ВШЭ, 2010.
2. Варнавский В.Г. Партнерство государства и частного сектора: формы, проекты, риски/ В.Г.Варнавский. – Москва: Наука, 2005. – 315 с.
3. Государство и бизнес: институциональные аспекты. – Москва: ИМЭМО РАН, 2006. – С. 40.
4. Гелбрейт, Дж.К. Экономические теории и цели общества = Economics and the Public Purpose (1973) / Под общ. ред. и с предисл. Н.Н.Иноземцева, А. Г.Милейковского. – Москва: Прогресс, 1976. – 408 с.
5. Джуманиязов У.И. “Давлат-хусусий шерикчилиги асосида корпоратив бошқарувни ривожлантиришнинг айрим назарий-услубий масалалари” // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. 2017. – № 3, май-июнь. – Б. 9.
6. Кабашкин В.А. Формирование и развитие партнерских отношений государства и предпринимательских структур в Российской Федерации (управленческий аспект): автореф. дисс. ...докт. экон. наук: 08.00.05/ В.А.Кабашкин. – Москва, 2007. – С. 23
7. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. сангл. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – Москва: МИЭМП, 2010.
8. Кукура С.П. Теория корпоративного управления/С.П.Кукура – Москва: Экономика, 2004. – С. 105.
9. Макконелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс. Принципы, проблемы, политика. – Москва: Республика, 1992. Т. II. – С. 398.
10. Национальные инновационные системы в России и ЕС / под ред. Иванова В.В., Клесовой С, Линдхольма П., Лукии О.П. – Москва: ЦИПРАН РАН, 2006. – С. 200.
11. Романова О.А. Теория и практика развития частно-государственного партнерства / О.А.Романова // Вестник Уральского государственного технического университета. 2007. – № 3. – С. 41.
12. Стырин Е.М. Международный опыт использования ГЧП для реализации проектов электронного правительства. – Москва: «Издательский дом ВШЭ», 2010.
13. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 10 майдаги ЎРҚ-537-сон “Давлат-хусусий шериклик тўғрисида”ги Қонуни // <https://lex.uz/docs/4329270>
14. Фролова Е.Д. Основные тенденции развития взаимоотношений государства и бизнеса/ Е.Д. Фролова // Вестник УГТУ-УПИ. 2003. – № 7. – С. 31.
15. Ходжаев П.Д. Зарубежный опыт формирования и развития партнерских отношений между государством и реги-ональными предпринимательскими структурами / П.Д. Ходжаев // Вестник Российско-таджикского (славянского) университета. – Душанбе: РТСУ, 2014. – № 3 (46). – С. 102.
16. Шарингер Л. Новая модель инвестиционного партнерства государства и частного сектора / Л.Шарингер // Мир перемен. – 2004. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. с англ. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – Москва: МИЭМП, 2010. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. с англ. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – Москва: МИЭМП, 2010. – № 2. – С. 22.
17. Шумпетер Й.А. История экономического анализа в 3 тт. – Санкт-Петербург: Экономическая школа, 2004.
18. Эргашев И.И. Хизмат кўрсатиш соҳасида инновацион-инвестицион жараёнларни ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш. иқт. фан. бўйича фалс. докт... (PhD) дисс... – Самарқанд: СамИСи, 2018. – Б. 30-31.
19. Peters J.G, Pierre J. Governance Politics and the State (Political Analysis). N.Y., 2000.